

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTIDA OLIY MA‘LUMOTLI KADRLAR TAYYORLASH
TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Qishloq va suv xo‘jaligi sohasida muhandis-texnik kadrlar tayyorlash bo‘yicha oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarini Muvofiqlashtiruvchi kengashi hamda Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilishi ta‘lim jarayonini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash imkoniyatlarini yaratdi.

Shu bilan birga, suv xo‘jaligi, irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohasida kadrlar tayyorlash borasida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Bunda:

birinchidan, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, jadallik bilan joriy etilayotgan zamonaviy intensiv, suvtejamkor texnologiyalar hamda ilg‘or tajribalar fan dasturlarida o‘zining aksini topmaganligi, ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha zamonaviy talablar asosida yaratilgan metodik qo‘llanmalar bilan to‘liq ta‘minlanmaganligi hamda institut o‘quv-laboratoriya bazasi ma‘nan va jismonan eskirganligi natijasida talabalar zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmayotganligi sababli bitiruvchilarning mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashishida muammolar mavjud;

ikkinchidan, mutaxassislar tayyorlash yuzasidan ehtiyojlar chuqur tahlil qilinmaganligi oqibatida sohaga innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, gidroenergetika va gidrotexnika inshootlaridan foydalanish, gidroekologiya, geo va gidroinformatika kabi yo‘nalishlarda oliy ma‘lumotli kadrlarga ehtiyoj mavjud;

uchinchidan, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, kasbiy bilim darajasi, shuningdek, amaliy tajribalarini doimiy oshirib borish mexanizmlarini joriy etish, ularning kasbiy kompetentligini oshirishda soha bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqot va oliy ta‘lim muassasalarining ilg‘or tajribalaridan samarali foydalanilmayapti;

to‘rtinchidan, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning tizimli tashkil etilmaganligi, ilmiy izlanishlarning sohada mavjud dolzarb ilmiy muammolar yechimlariga qaratilmaganligi oqibatida ilmiy faoliyatning zamonaviylik va natijadorlik darajasi pastligicha qolmoqda;

beshinchidan, talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini sohaviy korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bog‘lanmaganligi oqibatida bitiruvchilarning amaliy ko‘nikmalari talab darajasida emas.

Suv xo‘jaligi, irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash tarmoqlari uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti mavjud salohiyatidan samarali foydalanishni tashkil etish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ilmiy va ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonlarini tubdan takomillashtirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligining takliflari asosida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (keyingi o‘rinlarda Institut deb ataladi) uning Buxoro filiali va akademik litseylari bilan birgalikda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tizimiga o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar Institut va uning Buxoro filialida oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

suv xo‘jaligida innovatsion resurstejamkor texnika va texnologiyalarni qo‘llash, geodeziya va geoinformatika, daryo va suv omborlari gidrologiyasi bo‘yicha yangi va zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan oliy ma‘lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash;

o‘quv-laboratoriya bazasini modernizatsiyalash, o‘quv rejasi va fan dasturlarida soha bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, yuqori unumli va resurstejamkor ilg‘or

texnologiyalar bo'yicha bilimlarni aks ettirish, ta'lim berish jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta'minlash orqali oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish;

talabalarga ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha sohada amalga oshirilayotgan modernizatsiya va joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalarga oid yangi bilim va ko'nikmalarni singdirgan holda sifatli ta'lim berish;

professor-o'qituvchilarning kasbiy bilimi, pedagogik mahorati va ilmiy salohiyatini muntazam ravishda oshirish, xorijiy ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning malakasini oshirish va stajirovkalarini tashkil etishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash orqali manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy-texnik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan amaliy va innovatsion izlanishlarni amalga oshirish;

soha uchun kadrlar tayyorlashning uzviy tizimini yaratish, birlashtirilgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim dasturlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ularda sifatli ta'lim berilishini tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalarini bitirayotgan kadrlarni o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga yo'naltirish, ularning kasbiy faoliyati monitoringini tizimli tashkil etish.

3. Quyidagilar:

Institut va uning Buxoro filiali tuzilmasi **1** va **1a-ilovalarga** muvofiq;

Institutda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha yo'l xaritasi **2-ilovaga** muvofiq;

Institut va uning Buxoro filialiga davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, viloyat hokimliklarining buyurtmalariga asosan 2018/2019 o'quv yili uchun davlat granti va to'lov kontrakt asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabul kvotasi **3-ilovaga** muvofiq;

2018/2019 o'quv yilida Institut bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga davlat granti asosida maqsadli qabul kvotasini kadrlar buyurtmachilarining takliflariga asosan respublika hududlari bo'yicha taqsimoti **3a-ilovaga** muvofiq;

2018-2019-yillarda Institut va uning Buxoro filialida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlari parametrlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, Institut va uning Buxoro filialida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziriga, zarur hollarda, Institut hamda uning Buxoro filialini tasdiqlangan tuzilmalariga o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Institut hamda uning Buxoro filiali ustavlarini ikki oy muddatda tasdiqlanishini va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Institut tarkibidan chiqarilayotgan Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti hamda Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tahlil qilgan holda ularning idoraviy mansubligini aniqlasin.

7. 2018/2019 o'quv yilidan boshlab Institut hamda uning Buxoro filialida qishloq va suv xo'jaligi bilim sohasi magistratura mutaxassisliklariga qabul O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun to'liq davlat granti asosida amalga oshirilsin.

8. Institut va uning Buxoro filialining kadrlar buyurtmachilari ro'yxati va ularga taqsimlangan talabalar soni **5-ilovaga** hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining amaliyot o'tash obyektlariga birlashtirilishi **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9. Quyidagilar Institut va uning Buxoro filialida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha kadrlar buyurtmachilarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

korxonalar va tashkilotlar obyektlarida talabalarining amaliyotini tashkil qilish va ustoz-shogird tizimi asosida o'tilishini ta'minlash hamda talabalarni ishlab chiqarishning yangi me'yoriy hujjatlari, zamonaviy informatsion dasturiy ta'minot mahsulotlari bilan yaqindan tanishtirish;

ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlaridan tayinlangan malakaviy amaliyot rahbarlariga asosiy ish joyidan qo'shimcha ish haqlarini tayinlash;

manfaatdor vazirlik va idoralar tasarrufidagi boshqarmalar va ularning tarkibidagi korxonalar va tashkilotlardan malakali, tajribali mutaxassislarni ta'lim jarayonida ishtirokini ta'minlash;

korxonalar va tashkilotlarda professor-o'qituvchilarning stajirovkalari uchun shart-sharoitlar hamda kafedralarning filiallarini tashkil etish va amaliy mashg'ulotlar o'tish imkoniyatini yaratish.

Kadrlar buyurtmachilari talaba bilan o'qishni bitirganidan so'ng 5 yil ishlab berish majburiyatini belgilovchi shartnoma tuzish orqali uning bazaviy to'lov kontraktini 2-bosqichda kamida 50 foiz, 3-bosqichda kamida 75 foiz va 4-bosqichda 100 foiz miqdorda to'lab berishi mumkinligi qayd etilsin.

10. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi 39a-uyda joylashgan Toshkent iqtisodiyot va biznes kasb-hunar kollejining bino-inshootlari tegishli hududi bilan birgalikda talabalar turar joyi sifatida foydalanish uchun Institutga operativ boshqaruv huquqi asosida tekin berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur bandga asosan Institutga berilayotgan binoning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan rekonstruksiya qilinishini ta'minlasin.

11. Institut va uning Buxoro filiali faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar;

xo'jalik faoliyatidan va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik va xayriya mablag'lari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

12. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Fanlar akademiyasi Suv xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda suv xo'jaligi sohasiga oid dolzarb ilmiy-texnik muammolar bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot muassasalarining Institut bilan o'zaro muvofiqlashgan va uzviy hamkorligini ta'minlash hamda ilmiy ishlanmalarning natijadorligini oshirish yuzasidan zaruriy choralarni ko'rsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Adliya vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi R.S. Kasimov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari Q.V. Akmalov va Z.T. Mirzayev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 8-may,
PQ-3702-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PQ-3702-son qaroriga
1-ILOVA

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining

TUZILMASI



Izoh: Institut (fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo'linmalar) xodimlarining cheklangan umumiy soni oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PQ-3702-son qaroriga
1a-ILOVA

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Buxoro filiali

TUZILMASI



Izoh: Filial (fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo'linmalar) xodimlarining cheklangan umumiy soni oliy ta'lim muassasalari uchun o'rnatilgan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PQ-3702-son qaroriga
2-ILOVA

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha

YO'L XARITASI

Oldingi tahrirga qarang.

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchu |
|---|--|---|-----------------------|----------------------------|---|
| I. Qishloq va suv xo'jaligi sohasi uchun muhandis-texnik kadrlarga bo'lgan talablar asosida ta'lim sifatini mexanizmini shakllantirish | | | | | |
| 1. | Rivojlangan xorijiy mamlakatlar va mahalliy ilg'or tajriba hamda kadrlar iste'molchilarining talablari, soha bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, yuqori unumli va resurstejamkor ilg'or texnologiyalar o'z aksini topgan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini qayta ishlab chiqish. | 1. Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini qayta ishlab chiqish bo'yicha Ishchi guruh tashkil etish. | 2018-yil 15-may | - | Oliy va o'rta m... vazir... Suv xo'jalig... manfaatdor v... idora... Toshkent irr... qishloq xo... mexanizat... muhandisla... |
| | | 2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar va mahalliy ilg'or tajriba hamda kadrlar iste'molchilarining talablari asosida amaldagi mavjud davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini qayta tahlildan o'tkazish. | 2018-yil 30-iyun | | |
| | | 3. Mehnat bozori va sohaning zamonaviy istiqbolli talablari | 2018 yil 30-avgust | | |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|---|---|---------------------|----------------------------|---|
| | | <p>hamda xorijiy ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun takomillashgan yangi davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash hamda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish.</p> <p>4. Fan dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilayotgan va istiqbolda qo'llanilishi rejalashtirilgan zamonaviy dasturiy ta'minot (AutoCAD, ESTI, 3D Max, Solid Works, WorkBench, ArcGIS, QGIS, Panorama, Google sketch UP, Global Mapper, ScanEXE va h. k.) mahsulotlari bilan to'ldirish.</p> | grafik bo'yicha | | |
| 2. | Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va kadrlar iste'molchilarining talablari asosida yangidan tashkil etiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining nomlarini "Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori"ga kiritish. | 1. Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va kadrlar iste'molchilarining talablari asosida yangidan tashkil etiladigan "Suv ta'minoti muhandislik tizimlari", "Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish", "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish", "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash", "Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika | 2018-yil 30-aprel | - | Iqtisodiyot Oliy va o'rta maktabi vaziri Suv xo'jaligi manfaatdor vaziri idorasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizmlari muhandislar |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|--|---|---------------------|---|--|
| | | <p>obyektlari”, “Daryo va suv omborlari gidrologiyasi”, “Suv xo‘jaligida ekologiya xavfsizligi”, “Qishloq va suv xo‘jaligida texnik servis”, “Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta‘minoti”, “Geodeziya va geoinformatika”, “Yer kadastrisi va yerdan foydalanish”, “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” ta‘lim yo‘nalishlari hamda ularning magistratura mutaxassisliklarini “Oliy ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori”ga kiritish bo‘yicha Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va Vazirlar Mahkamasiga takliflarni taqdim qilish.</p> <p>2. Yangidan tashkil etiladigan ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining nomlarini “Oliy ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori”ga kiritish.</p> | 2018-yil 30-may | | |
| 3. | Yangidan tashkil etilayotgan ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-metodik adabiyotlar, axborot materiallari (shu jumladan, ularning elektron variantlari), maxsus davriy nashrlar bilan ta‘minlash. | 1. Yangidan tashkil etilayotgan ta‘lim yo‘nalishlari uchun o‘quv-metodik adabiyotlar, axborot materiallarini yaratish bo‘yicha sohaning yetuk mutaxassislari hamda sohaga oid | 2018-yil 15-may | Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining budjetdan tashqari mablag‘lari | Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Suv xo‘jaligini mexanizatsiyalash Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|--|---|---------------------|----------------------------|--|
| | | xorijiy oliy ta'lim muassasalarining olimlari tarkibidan iborat Ishchi guruh tashkil etish. | | | |
| | | 2. Yangidan tashkil etilayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlar, axborot materiallarini yaratish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2018-yil 15-iyun | | |
| | | 3. Nashr uchun tayyorlangan o'quv-metodik adabiyotlarni sifatli chop etish. | 2019 — 2021-yillar | | |
| 4. | Talabalarning amaliyotlarini ilg'or texnologiyalarga ega korxonalar, tashkilot, fermer xo'jaliklari va tashkilotlarda o'tashlarini tashkil qilish, yosh mutaxassislarni o'z yo'nalishlari bo'yicha ishga joylashtirish tadbirlarini o'z ichiga olgan hamkorlik shartnomalarini tuzish. | 1. Talabalarning amaliyotini tashkil etish bo'yicha Ishchi guruh tuzish. | 2018-yil 15-may | | |
| | | 2. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalariga amaliyot muddatini 24 haftadan 30 haftagacha belgilash. | 2018-yil 30-iyun | | |
| | | 3. Amaliyotlarni mavsumiy o'tkazish jadvallarini ishlab chiqish. | 2018-yil 30-may | | |
| | | 4. Talabalarning amaliyot o'tashlari uchun yangi quriladigan suv omborlari va rekonstruksiya qilinadigan hamda ta'mirlanadigan irrigatsiya va melioratsiya tizimlari obyektlari hamda agroklastar tizimida faoliyat yuritadigan korxonalar ro'yxatini shakllantirish va ushbu tashkilotlarda amaliyotni yuqori saviyada o'tkazish | 2018-yil 30-may | | Suv xo'jaligi Oliy va o'rta r... vaziri "O'zagrotexsa AJ, "O'zbekg AJ, "Davyerge davlat qo "O'zqishloqen OAJ, manfaatd va ido Qoraqalp Respublika Kengashi, v Toshkent hokimliklari irrigatsiya xo'jaligini mex muhandisla |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|--|--|---------------------|----------------------------|---|
| | | bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash. | | | |
| | | 5. Zamonaviy texnika va texnologiyalarini joriy etgan yetakchi korxonalar va tashkilotlar, ilg'or fermer xo'jaliklari bilan talabalarning amaliyotlarini o'tash bo'yicha hamkorlik shartnomalarini tuzish. | har yili 30-may | | |
| | | 6. Hududlar bo'yicha belgilangan korxonalar va tashkilotlar, ilg'or fermer xo'jaliklarida amaliyot o'tovchi talabalar guruhlarini shakllantirish va ta'lim muassasasi, ishlab chiqarishdan mas'ul amaliyot rahbarlarini tayinlash. | har yili 5-iyun | | |
| | | 7. Amaliyot davrida talabalar uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, ularning mehnatiga haq to'lash, yashash joylari bilan ta'minlash hamda o'qishni tugatgandan so'ng ishga taqsimlash. | har yili 5-iyun | | |
| 5. | Bitiruvchi yosh mutaxassis o'z kasbi bo'yicha ishga joylashishi, o'z yo'nalishlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari, kasbiy faoliyatini monitoring qilish maqsadida aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. | 1. Bitiruvchi yosh mutaxassislar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruh tashkil etish. | 2018-yil 15-may | - | Suv xo'jaligi Oliy va o'rta maktabi vaziri manfaatdori va idoralarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi va hokimliklari irrigatsiya va xo'jalik mexanizmlari muhandislar |
| | | 2. Bitiruvchi yosh mutaxassislar uchun buyurtmachi tashkilotlar tomonidan muntazam "Bo'sh ish o'rinlari" yarmarkalarini o'tkazish bo'yicha aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. | har yili aprel | | |
| | | 3. Ishga joylashtirilgan yosh | 2018 — 2021-yillar | | |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|---|---|---------------------|--|--|
| | | mutaxassislar, bitiruvchilarga kasbiy faoliyatlari bo'yicha uch yil davomida institut tomonidan uslubiy yordam ko'rsatish va ularning faoliyatini monitoring tizimini joriy qilish. | yillar | | |
| | | 4. Yosh mutaxassislarni soha bo'yicha davlat korxonalarida mehnat faoliyatini boshlashi va ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilish. | 2018-yil 30-may | | |
| 6. | O'quv jarayonida zarur bo'ladigan qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalarning namunalari, maketlari, tegishli dasturga ega bo'lgan trenajyorlari bilan ta'minlash. | 1. O'quv jarayoni uchun zaruriy moddiy texnik bazalarni shakllantiruvchi Ishchi guruh tuzish. | 2018-yil 15-may | Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, homiylik mablag'lari | Oliy va o'rta maktab vazirligi, Suv vazirligi, Qishloq va meliorativ vazirligi, Moliya vazirligi, "O'zagrosano" AJ, manfaatdori va idoralar, irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizmlari muhandislar |
| | | 2. O'quv jarayonida foydalaniladigan qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalarning namunalari, maketlari, trenajyorlarning turlari va miqdorlari bo'yicha takliflar tayyorlash | 2018-yil 25-may | | |
| | | 3. Qishloq xo'jaligi va melioratsiya sohasida foydalaniladigan zamonaviy texnikalarning namunalari hamda maketlari bilan ta'minlash. | 2018-2019-yillar | | |
| | | 4. Maxsus dasturlar bilan ishlovchi qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalarning trenajyorlarini sotib olish. | 2018-2019-yillar | | |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|--|---|--|--|---|
| 7. | Biriktirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'qituvchilarning salohiyati va malakasini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash. | <p>1. Institutga biriktirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseyning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'qituvchilarning salohiyati va malakasini oshirish bo'yicha Ishchi guruh tashkil etish.</p> <p>2. Hududlarda Suv xo'jaligi va melioratsiya kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylarni mavjud moddiy-texnika bazalarini tahlil qilish hamda zamonaviy laboratoriya jihozlari va o'quv qurollari bilan ta'minlash bo'yicha takliflar tayyorlash.</p> <p>3. Biriktirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari o'qituvchilarining tayanch oliy ta'lim muassasasi hamda ilg'or ishlab chiqarish korxonalarida pedagogik va kasbiy malakalarini oshirish grafisini ishlab chiqish.</p> | <p>2018-yil 15-may</p> <p>2018-yil 20-avgust</p> <p>2018-yil 30-avgust</p> | - | <p>Suv xo'jaligi</p> <p>Oliy va o'rta m</p> <p>vazirlig</p> <p>Kasb-huna</p> <p>mark</p> <p>Toshkent irr</p> <p>qishloq xo</p> <p>mexanizat</p> <p>muhandisla</p> <p>akademik litse</p> <p>hunar ko</p> |
| 8. | Ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida respublikaning boshqa hududlaridan taklif etilgan olimlar va mutaxassislarni turar joy bilan ta'minlash uchun joylarda qurilayotgan ijtimoiy uy-joylardan imtiyozli shartlarda xonadonlar ajratish. | 1. Institutning hozirgi kundagi ilmiy salohiyatini, mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilarning talabalarga zamonaviy bilim berish darajalarini tanqidiy tahlil qilish va yaqin 3 yilda 65 foizdan oshirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqish. | 2018-yil 25-may | Tijorat banklarining imtiyozli kreditlari va talabgorlarning o'z mablag'lari | <p>Oliy va o'rta m</p> <p>vazir</p> <p>Suv xo'jaligi</p> <p>Toshkent sha</p> <p>va Toshkent</p> <p>hokiml</p> <p>Toshkent irr</p> <p>qishloq xo</p> <p>mexanizat</p> <p>muhandisla</p> |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|--|---|--|---|----------------------------|---|
| | | 2. Ilmiy salohiyatni oshirish uchun ilmiy darajaga ega bo'lgan respublikadagi ishlab chiqarish tashkilotlarining yetakchi mutaxassislari, sohaga oid ilmiy-tadqiqot institutlarining olimlarini institutga jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish. | 2018-yil 5-iyun | | |
| 9. | Suv xo'jaligi tashkilotlari, gidroenergetika tashkilotlari, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini, agrotexservis tizimi, "O'zbekgidroenergo" AJ, "O'zqishloqenergiyaloyiha" OAJ, "Davyergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarning asoslangan takliflariga 2018/2019 o'quv yilidan boshlab qabul kvotalarini shakllantirish. | 1. Suv xo'jaligi tashkilotlari, gidroenergetika tashkilotlari, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini, agroservis tizimi, "Davyergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarning asoslangan takliflari bo'yicha qabul kvotalarini ishlab chiqish va 2022-yildan boshlab ularni ishga joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish. 2. Iqtisodiyotning oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlari asosida besh yillik kadrlarga bo'lgan buyurtmalar portfelini shakllantirish. | har yili 30-mart 2018-yil 30-may | - | Suv xo'jaligi Iqtisodiyot Moliya va Oliy va o'rta maktab vaziri Suv xo'jaligi O'zbekgidroenergo OAJ "Davyergeodezkadastr" davlat qo'mitasi irrigatsiya va suv xo'jaligi mexanizatsiya muhandislar |
| II. Ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish | | | | | |
| 10. | Ilmiy-tadqiqot ishlarini va o'quv jarayonlarini takomillashtirish maqsadida xorijning ilg'or oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan tizimli | 1. Ilmiy-tadqiqot ishlarini va o'quv jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha Ishchi guruh tashkil etish. | 2018-yil 15-may | - | Suv xo'jaligi Innovatsion rivojlantirish Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|--|---|---------------------------|--|---|
| | aloqalarni kengaytirish va ularning natijadorligini oshirish. | 2. Sohaning istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ilmiy ishlanmalarning natijadorligini oshirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2018-yil 30-may | | mexanizatsiya muhandislar |
| | | 3. Suv xo'jaligi sohasiga oid dolzarb ilmiy-texnik muammolar bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot muassasalari, xorijning ilg'or oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti bilan o'zaro hamkorlik shartnomalarini tuzish. | har yili 30-sentabr | | |
| | | 4. Ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda mutaxassislik kafedralarning filiallarini tashkil etish, ishlab chiqarishdagi mavjud muammolarni o'rganish, ilmiy yechimini izlash va amaliy mashg'ulotlar o'tish imkoniyatini yaratish. | o'quv yili davomida | | |
| 11. | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining sohaga aloqador ilmiy muassasalari bilan hamkorlikda dolzarb mavzular bo'yicha hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish. | 1. Sohaga aloqador ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda ishlash bo'yicha innovatsion guruh tashkil etish. | 2018-yil 30-may | Davlat grantlari va xo'jalik shartnomalari mablag'lari | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Suv xo'jaligi bo'yicha innovatsion rivojlantirish muhandislar Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar |
| | | 2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining sohaga aloqador ilmiy muassasalari bilan | 2018 — 2020-yillar yillar | | |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|--|--|---------------------|--|--|
| | | qishloq va suv xo'jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini hamkorlikda amalga oshirish. | | | |
| 12. | Ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantlarni, iqtidorli talaba-yoshlarni sohaning ilmiy muammoli mavzulari bilan shug'ullanishga jalb etish, tadqiqot ishlari uchun ishlab chiqarish tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlarida tajriba-sinov ishlari uchun sharoitlar yaratish. | 1. Iqtidorli talabalar, magistrantlar va yosh olimlar bilan ishlash bo'yicha Ishchi guruh tashkil etish. | 2018-yil 15-may | Davlat grantlari va xo'jalik shartnomalari bo'yicha tushgan mablag'lar | Suv xo'jaligi Innovatsion rivojlantirish manfaatdor va idora Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiya muhandisla |
| | | 2. Iqtidorli talabalar, magistrantlar va yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb etish. | har yili 30-may | | |
| | | 3. Iqtidorli talabalar, magistrantlar va yosh olimlarni ilmiy-tajriba ishlarini bajarish reja-grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash. | har yili 30-iyun | | |
| | | 4. Iqtidorli talabalar, magistrantlar va yosh olimlariga tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun ishlab chiqarish tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlarida tajriba-sinov ishlarini o'tkazish. | 2018 — 2020-yillar | | |
| 13. | Ilmiy ish bilan shug'ullanish uchun yosh izlanuvchilarga zarur sharoitlar yaratish. | 1. Etakchi olimlar ishtirokida iqtidorli talabalar, magistrantlar va ilmiy izlanuvchilar uchun maqsadli kurslar va seminarlar tashkil etish. | 2018 — 2020-yillar | Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi, xalqaro ta'lim grantlari, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining budjetdan tashqari mablag'lari va | Suv xo'jaligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi, Innovatsion rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi manfaatdor va idora Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiya muhandisla |
| | | 2. Davlat dasturlari va xalqaro loyihalar hisobidan iqtidorli magistrantlar va doktorantlarni xorijning yetakchi oliy ta'lim va ilmiy muassasalariga o'qishga, tajriba o'rganish uchun stajirovkaga hamda ilmiy anjumanlarga | 2018 — 2020-yillar | | |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchu |
|--|---|---|---------------------|----------------------------|---|
| | | xizmat safariga yuborish. | | homiyluk mablagʻlari | |
| 14. | Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash yoʻnalishi boʻyicha fan-taʼlim-ishlab chiqarish integratsiyasi asosida malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida “Oʻzagroservis” AJ tasarrufidagi korxonalar, agroklaster tizimida faoliyat yuritadigan (Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani “Mirzaobod universal trade cluster” xususiy korxonasi, Jizzax viloyati Sh. Rashidov tumani “Hayotbek tekstil” MChJ kabi) korxonalarda talabalarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot natijalari va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. | 1. Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash yoʻnalishi boʻyicha talabalarning amaliyotlarini agroklaster tizimida faoliyat yuritadigan korxonalar hamda “Oʻzagroservis” AJ tasarrufidagi tashkilotlarda oʻtkazish. | 2018 — 2020-yillar | - | Suv xoʻjaligi Oliy va oʻrta n vazir “Oʻzagro aksiyadorlik Fanlar aka Jizzax viloyat Sirdaryo viloy “Mirzaobod un cluster” xusus Toshkent irr qishloq xo mexaniza muhandisla |
| | | 2. Institut olimlari tomonidan qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash, irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot natijalari va yaratilgan innovatsion texnologiyalarni agroklaster tizimida faoliyat yuritadigan korxonalar, “Oʻzagroservis” AJ tasarrufidagi tashkilotlarda amaliyotga tatbiq qilish. | 2018 — 2020-yillar | | |
| III. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish hamda xalqaro aloqalarni rivojlantirish | | | | | |
| 15. | Qishloq va suv xoʻjaligi sohasida ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini yaxshilash, taʼlim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, professor-oʻqituvchilar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy-tadqiqotlar metodologiyalari boʻyicha oʻquv-seminarlar tashkil etish. | 1. Sohada ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini yaxshilash boʻyicha Ishchi guruh tashkil etish. | 2018-yil 15-may | - | Suv xoʻjaligi Oliy va oʻrta n vazir Moliya v Iqtisodiyot Toshkent irr qishloq xo mexaniza muhandisla |
| | | 2. Taʼlim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shuningdek, barcha mutaxassis fanlarni oʻqitishda maxsus kompyuter dasturlar paketi, geoaxborot | 2018-yil 2-sentabr | | |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|---|--|--|---------------------|--|---|
| | ilg'or korxonalar va tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bazasida kasbiy malakalarini oshirishni tashkil etish. | ro'yxatlarini shakllantirish. | | muhandislari institutining budjetdan tashqari mablag'lari | manfaatdor va idora Toshkent irri qishloq xo mexanizati muhandisla |
| | | 2. Mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilarni sohadagi ilg'or korxonalar va tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bazasida kasbiy malakalarini oshirish rejasini ishlab chiqish. | 2018-yil 30-may | | |
| | | 3. Ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarning rahbarlari va yetakchi mutaxassislari ishtirokida kafedralarda professor-o'qituvchilar va bitiruvchi kurs talabalari uchun "Ishlab chiqarishning muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalari"ni tashkil qilish grafigini ishlab chiqish. | 2018-yil 20 avg ◆st | | |
| IV. Ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish | | | | | |
| 19. | Ta'lim sifatini oshirish maqsadida ularni modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-laboratoriya majmualari, ilmiy laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash hamda o'quv binolari, talabalar turar joylarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil va nazorat qilish. | 1. Suv sarfini o'lchovchi asboblardan, raqamli elektron-avtomatik priborlar va yerni tekislovchi lazerli qurilmalar laboratoriyalar jihozlari, traktorlarni boshqaruv tizimida ESTI kalibrovka dasturi, turbokompressorni muvozanatlovchi qurilmasi, yonilg'i apparati, forsunka va injektorlarni diagnostika qilish va ta'mirlash stendlari hamda shu kabi asbob-uskunalarga buyurtma berish. | 2018-yil 30-may | Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, homiylik mablag'lari | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, Suv vazir ◆igi, xo'jaligi va Iqtisodiyot Moliya va manfaatdor va idora Toshkent irri qishloq xo mexanizati muhandisla |

| T/r | Tadbirlar mazmuni | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish uchun |
|-----|--|---|---------------------|----------------------------|---|
| | | 2. Barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy o'quv-laboratoriya majmualari, ilmiy laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash (tarmoq jadvali asosida). | 2018 — 2020-yillar | | |
| | | 3. O'quv binolari qurish va mukammal ta'mirlash ishlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish (tarmoq jadvali asosida). | 2018 — 2021-yillar | | |
| 20. | Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va uning Buxoro filiali, ularga birlashtirilgan kasb-hunar kollejlarning o'quv-tajriba xo'jaliklarining ilmiy-tadqiqot va tajriba sinov ishlari uchun ajratilgan yer uchastkalarida davlat buyurtmasi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish yuzasidan mahalliy hokimliklar tomonidan shartnomaviy majburiyatlar belgilashni bekor qilish. | 1. O'quv-tajriba xo'jaliklarining ilmiy-tadqiqot va tajriba sinov ishlari uchun ajratilgan yer uchastkalarida davlat buyurtmasi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning shartnomaviy majburiyatlarini bekor qilish. | 2018-yil 15-may | - | Suv xo'jaligi "Davyergeon" davlat qo'riqxonasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi, viloyat tumanlar hokimliklari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti uning Buxoro filiali |

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-maydagi PF-5733-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.05.2019-y., 06/19/5733/3216-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PQ-3702-son qaroriga 3-ILOVA

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va uning Buxoro filialiga davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, viloyat hokimliklarining buyurtmalariga asosan 2018/2019 o'quv yili uchun davlat granti va to'lov kontrakt asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha

QABUL KVOTASI

| T/r | Shifr | Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari nomi | 2018/2019 o'quv yiliga qabul rejasi |
|-----|-------|---|-------------------------------------|
|-----|-------|---|-------------------------------------|

| | | | Jami | shu jumladan: | |
|--|----------|---|--------------|---------------|-----------------|
| | | | | davlat granti | to'lov kontrakt |
| Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari | | | 1 170 | 360 | 810 |
| Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti | | | 900 | 290 | 610 |
| 1. | 5450200 | Suv xo'jaligi va melioratsiya | 115 | 30 | 85 |
| 2. | 5430100 | Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish | 95 | 25 | 70 |
| 3. | 5450300 | Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish | 90 | 30 | 60 |
| 4. | 5340700 | Gidrotexnika qurilishi (suv xo'jaligida) | 30 | 10 | 20 |
| 5. | 5450400 | Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish | 60 | 20 | 40 |
| 6. | 5311000 | Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish | 50 | 15 | 35 |
| 7. | 5230900 | Buxgalteriya hisobi va audit | 25 | 10 | 15 |
| 8. | r/y | Suv ta'minoti muhandislik tizimlari | 25 | 10 | 15 |
| 9. | r/y | Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish | 25 | 10 | 15 |
| 10. | r/y | Daryo va suv omborlari gidrologiyasi | 25 | 10 | 15 |
| 11. | r/y | Suv xo'jaligida ekologiya xavfsizligi | 30 | 10 | 20 |
| 12. | r/y | Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish | 40 | 15 | 25 |
| 13. | r/y | Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis | 30 | 10 | 20 |
| 14. | r/y | Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash | 25 | 10 | 15 |
| 15. | r/y | Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika obyektlari | 50 | 15 | 35 |
| 16. | r/y | Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti | 45 | 15 | 30 |
| 17. | r/y | Geodeziya va geoinformatika | 45 | 15 | 30 |
| 18. | r/y | Yer kadastrasi va yerdan foydalanish | 70 | 20 | 50 |
| 19. | r/y | Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi | 25 | 10 | 15 |
| Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Buxoro filiali | | | 270 | 70 | 200 |
| 1. | 5450200 | Suv xo'jaligi va melioratsiya | 40 | 10 | 30 |
| 2. | 5430100 | Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish | 30 | 10 | 20 |
| 3. | 5450300 | Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish | 40 | 10 | 30 |
| 4. | 5340700 | Gidrotexnika qurilishi (suv xo'jaligida) | 20 | 5 | 15 |
| 5. | 5450400 | Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish | 40 | 10 | 30 |
| 6. | 5311000 | Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish | 20 | 5 | 15 |
| 7. | r/y | Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti | 40 | 10 | 30 |
| 8. | r/y | Yer kadastrasi va yerdan foydalanish | 40 | 10 | 30 |
| Magistratura mutaxassisliklari | | | 92 | 80 | 12 |
| Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti | | | 86 | 74 | 12 |
| 1. | 5A450202 | Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik | 6 | 6 | |
| 2. | 5A630101 | Atrof muhit muhofazasi (sohalar bo'yicha) | 4 | 1 | 3 |

| | | | | | |
|-----|----------|--|----------|----------|---|
| 3. | 5A450205 | Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish | 4 | 4 | |
| 4. | 5A450206 | Suv tejamkor sug'orish texnologiyalari | 4 | 4 | |
| 5. | 5A450401 | Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish, ularning ishonchligi va xavfsizligi | 5 | 5 | |
| 6. | 5A450402 | Nasos stansiyalari va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi | 5 | 5 | |
| 7. | 5A430101 | Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish | 8 | 8 | |
| 8. | 5A450301 | Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash | 7 | 7 | |
| 9. | 5A311001 | Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish (suv xo'jaligida) | 5 | 2 | 3 |
| 10. | 5A410701 | Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish | 8 | 8 | |
| 11. | r/y | Suv resurslaridan mukammal foydalanish va boshqarish | 4 | 4 | |
| 12. | r/y | Suv xo'jaligida ekologiya xavfsizligi | 4 | 2 | 2 |
| 13. | r/y | Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish | 4 | 4 | |
| 14. | r/y | Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti | 5 | 5 | |
| 15. | r/y | Suv xo'jaligida Smart (intellektual) o'lchash tizimlari va asboblari | 5 | 5 | |
| 16. | r/y | Geodeziya va geoinformatika | 8 | 4 | 4 |
| | | Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Buxoro filiali | 6 | 6 | |
| 1. | 5A450205 | Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish | 2 | 2 | |
| 2. | 5A410701 | Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish | 2 | 2 | |
| 3. | 5A450301 | Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash | 2 | 2 | |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PQ-3702-son qaroriga
3a-ILOVA

2018/2019 o'quv yilida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti bakalvriat ta'lim yo'nalishlariga davlat granti asosida maqsadli qabul kvotasini kadrlar buyurtmachilarining takliflariga asosan respublika hududlari bo'yicha

TAQSIMOTI

| T/r | Shifr | Bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari nomi | 2018/2019 o'quv yiliga qabul rejasi | | | Davlat granti jami | Qoraqalpog'iston Respublikasi | Xorazm | Buxoro |
|-------------------------------|---------|---|-------------------------------------|-----------------------------|-----------------|--------------------|-------------------------------|-----------|----------|
| | | | Jami | shu jumladan: davlat granti | to'lov kontrakt | | | | |
| Bakalavr yo'nalishlari | | | 900 | 290 | 610 | 290 | 6 | 23 | 7 |
| | | Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti | 900 | 290 | 610 | 290 | 6 | 23 | 7 |
| | | Toshkent sh: | 900 | 290 | 610 | 290 | 6 | 23 | 7 |
| 1. | 5450200 | Suv xo'jaligi va melioratsiya | 115 | 30 | 85 | 30 | | 3 | |
| 2. | 5430100 | Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish | 95 | 25 | 70 | 25 | | 2 | |

| | | | | | | | | | |
|-----|---------|---|----|----|----|----|---|---|---|
| 3. | 5450300 | Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish | 90 | 30 | 60 | 30 | | 4 | |
| 4. | 5340700 | Gidrotexnika qurilishi (suv xo'jaligida) | 30 | 10 | 20 | 10 | | | |
| 5. | 5450400 | Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish | 60 | 20 | 40 | 20 | | 2 | |
